

0'zDSMI da ota-onalar kongressi o'tkazildi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ota-onalar kongressi bo'lib o'tdi. Unda barcha fakultetda tahsil oluvchi birinchi bosqich talabalarining ota-onalari ishtirok etdi. Uchrashuvda institut rektori v.b. Eldor Shermanov boshchiligida prorektorlar, fakultet dekanlari va ularning o'rinbosarlari hamda tyutorlar qatnashdi.

Kongress doirasida o'quv jarayonining borishi, talabalarning darslarda ishtiroki, odob-axloq kodeksi va institut ichki tartib-intizomi, talaba-yoshlarning turli tanlov va festivallarda ishtirokini ta'minlash, talabalar turar joyi va ijara xonadonlarida yashash tartibi yuzasidan atroflicha ma'lumot berildi.

Bundan tashqari, yoshlarning qobiliyatini yuzaga chiqarish, ularni rag'batlantirish hamda kitobga oshno bo'lishini ta'minlash, ularning xorijiy tillarni o'rganishi uchun munosib sharoit yaratishda ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tildi. O'z navbatida, ota-onalar farzandlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, bundan mamnun bo'lganliklarini e'tirof etishdi.

Tadbir davomida ota-onalar uchun «Qora quyosh» spektakli namoyish etildi. Shundan so'ng mehmonlar uchun kofe-breyk tashkil etildi.

Shu bilan birga, ota-onalar o'quv xonalari va dars jarayonlari bilan yaqindan tanishib, professor-o'qituvchilar bilan muloqot qildi.







O'zDSMI Ilmiy kengashida Nodira Kasimova san'atshunoslik fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Nodira Kasimovaning san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiya ishi himoyasi bo'lib o'tdi.

«O'zbekistonda qisqa metrajli badiiy kinoning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar» mavzusida yoqlangan himoya dissertatsiyasida sohadagi muammo va kamchiliklar atroflicha yoritib berildi.

Dissertatsiya himoyasi natijasiga ko'ra, kengash a'zolari tomonidan Nodira Kasimova san'atshunoslik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun loyiq deb topildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi Nodira Kasimovani dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilganligi bilan tabriklaydi va kelgusidagi ilmiy va kasbiy faoliyatida ulkan zafarlar tilaydi.





O'zDSMI Ilmiy kengashida Robiya Tursunmetova san'atshunoslik fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Robiya Tursunmetovaning san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiya ishi himoyasi bo'lib o'tdi.

«Zamonaviy o'zbek badiiy kinosida xarakter talqinlari» mavzusida yoqlangan himoya dissertatsiyada tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va

texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiqot ob'yekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari belgilangan, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, dissertatsiya mavzusi bo'yicha nashr etilgan maqolalar, tadqiqot ishining tuzilishi to'g'risida atroflicha ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiya himoyasi natijasiga ko'ra, kengash a'zolari tomonidan Robiya Tursunmetova san'atshunoslik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun loyiq deb topildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi Robiya Tursunmetovani dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilganligi bilan tabriklaydi va kelgusidagi ilmiy va kasbiy faoliyatida ulkan zafarlar tilaydi.







Chempionlar bilan uchrashuv

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida mamlakatimiz miqyosida sport sohasida muvaffaqiyatli natijalar qayd etgan sportchilar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan davra suhbatida mazkur oliy ta'lim muassasasining «Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyoti» hamda «Yakka kurash turlari» kafedralari qoshidagi ta'lim yo'nalishlari talabalari bo'lgan muaytay bo'yicha sport ustalari – Shahriyor Rashidov va Alisher Komiljonov hamda belbog'li kurash bo'yicha jahon va O'zbekiston chempioni Og'abek Amatbayev sportga kirib kelish tarixi, erishgan natijalari, bosib o'tgan mashaqqatli yo'li to'g'risida o'z

taasurotlari bilan o'ртоqlashdi.

Uchrashuv davomida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Bunday tadbirlardan maqsad sport va san'at vakillari o'rtasida do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish, sportchilar uchun ijodiy, oliygohimiz talabalarimiz uchun esa sog'lom turmush tarziga oid qiziqish va ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.






Fransiyada madaniyat va san'at sohasi bo'yicha tahsil olishga oid seminar o'tkazildi


Bugun Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi Campus France agentligi vakili Sipriyan Lyorua tomonidan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining bitiruvchi talabalari uchun seminar o'tkazildi.

Seminarda Fransiya madaniyati va san'ati, sohaga oid tashkilotlar, tarixiy maskanlari to'g'risida ma'lumot berildi.

Qolaversa, Yevropa mamlakatidagi madaniyat va san'atga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari faoliyati, u yerda tahsil olish imkoniyatlari, grant dasturlari, universitetlarga o'qishga kirish uchun belgilangan talablar to'g'risida atroflicha ma'lumot berildi.

Davra suhbatida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar yuzasidan tegishli ma'lumotlarga ega bo'ldi.





Tursunmetova Robiya Abdulla qizining ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD

E'LON

2023-YIL 20-SENTABR KUNI O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT

VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY

DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI

ILMIY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI

KUN TARTIBI:

Tursunmetova Robiya Abdulla qizining 17.00.03 – Kino san'ati. Televideniye. san'atshunoslik ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan “Zamonaviy o'zbek badiiy kinosida xarakter talqinlari (1991-2021 – yillar)” mavzusidagi dissertatsiyasi muhokamasi bo'lib o'tadi.

Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti “A”
binosi,

2-qavat, majlislar zalida **10.00** da boshlanadi.

016_P_Tursunmetovanning_Ximoya_эълони

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zDSMI Axborot-resurs

markazida tanishish mumkin.

Kasimova Nodira
Saitjanovnaning ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD

E'LON

2023-YIL 20-SENTABR KUNI O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT

VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY

DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI

ILMIY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI

KUN TARTIBI:

Kasimova Nodira Saitjanovnaning 17.00.03 – Kino san'ati. Televideniye. San'atshunoslik ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan "O'zbekistonda qisqa metrajli badiiy kinoning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar" mavzusidagi dissertatsiyasi muhokamasi bo'lib o'tadi.

Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A"
binosi,

2-qavat, majlislar zalida **12.30** da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zDSMI Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

O'zDSMIda navbatdan tashqari Ilmiy Kengash bo'lib o'tdi

O'zDSMIda navbatdan tashqari ilmiy Kengash bo'lib o'tdi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida rektor v.b. Eldor Shermanov boshchiligida institutning navbatdan tashqari ilmiy kengashi bo'lib o'tdi. Unda barcha prorektorlar, dekanlar, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari ishtirok etishdi.

Dastlab oxirgi yillarda institutning rivojlanib borayotgan xalqaro aloqalariga, O'zbekiston madaniyati va san'atini dunyoga tanitishga ulkan hissa qo'shib kelayotgan xorijiy hamkorlarga institutning faxriy professori unvonini berish masalasi ko'rib chiqildi. Kengash a'zolari tomonidan O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi madaniyat markazi direktori Samir Abbasov, Qozon davlat madaniyat instituti rektori Ahmadiyeva Roza Shayxaydarovna va Ozarbayjon milliy maqom markazi direktori Sahib Pashshazodalarga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining faxriy professori unvonini berish bir ovozdan ma'qullandi.

Shuningdek, kengashda ijro intizomi, xalqaro shartnomalar bo'yicha birlashtirilgan kafedralar tomonidan olib borilayotgan

ishlar samaradorligi, 1-6-oktabr kunlari xorijdan tashrif buyurishi kutilayotgan mehmonlarni kutib olish bilan bog'liq chora-tadbirlar, ijara xonadonlari va talabalar turar joyi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va boshqa muhim masalalarga birma-bir to'xtalinib, mas'ullar axboroti eshitildi.

Bundan tashqari, kengashda tashkiliy masala ham ko'rib institut magistratura bo'limi boshlig'i lavozimiga psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent Mahmudov A'zamjon Muxtorovich tayinlanib, uning faoliyatiga omad tilandi.

